



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ning

20__-20__-o'quv yilida
8-sinflar uchun ona tili fanidan
III chorak

DARS
ISHLANMALAR

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 8-sinf ona tili fanidan III chorak taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Nutqiy mavzu doirasida og‘zaki suhbat. Diagramma shaklida berilgan ma’lumotlarni o‘qib tushunish topshiriqlari	1		
2.	“Shaharlarning “yashil o‘pkasi” matni ustida ishlash	1		
3.	Muhokama esse	1		
4.	Muhokama esse yozish	1		
5.	“Sevinchning qushlari” matni ustida ishlash	1		
6.	Tasviriy ifoda va iboralar	1		
7.	“Shifokor tavsiyasi yoki xalq tabobati?” mavzusida yozilgan esselar tahlili. Fe’llarning munosabat shakllari	1		
8.	“Ona tulki” matni ustida ishlash	1		
9.	BSB-4. Muhokama esse yozish (25 ball)	1		
10.	“Suratlarning o‘zi gapirsa” matni ustida ishlash	1		
11.	Sifat va ravish	1		
12.	“Hayot va sahna ko‘zgusi” matni ustida ishlash	1		
13.	O‘zlashtirma gap	1		
14.	“Gilamdo‘zlik - o‘zbek xalq amaliy san’ati” (audiomatn). Tinglab tushunish topshiriqlari ustida ishlash	1		
15.	Tarixiy, arxaik va yangi so‘zlar	1		
16.	Ssenariy yozish	1		
17.	Yozilgan ssenariylar asosida ijodiy ish	1		
18.	San’atning inson hayotidagi o‘rni haqida ijodiy matn yaratish	1		
19.	BSB-5. Loyiha ishi. Audioteatr. (25 ball)	1		
20.	“Ko‘pkari - milliy xalq o‘yini” matni ustida ishlash. Matnga iqtibos kiritish qoidalari	1		
21.	Olmoshlar	1		
22.	Bakteriya va virus haqidagi matn ustida ishlash	1		
23.	Neologizmlar	1		
24.	Lug‘at va uning turlari. Lug‘atlar bilan ishlash	1		
25.	“Umrni uzaytiradigan 4 ta sport turi” (audiomatn). Tinglab tushunish topshiriqlari. Hisob (o‘lchov) so‘zlar	1		
26.	Infografika ustida ishlash. Maqola yozish	1		
27.	Reklama matni, uni yozish qoidalari	1		
28.	Reklama matnlari taqdimoti (Ijodiy ish)	1		
29.	CHSB-3 (40 ball)	1		
30.	Mustahkamlash	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Nutqiy mavzu doirasida ogʻzaki suhbat. Diagramma shaklida berilgan maʼlumotlarni oʻqib tushunish topshiriqlari

Darsning maqsadi:

Taʼlimiy: oʻquvchilarga yangi mavzu boʻyicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va toʻgʻri yozish koʻnikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: oʻquvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uygʻotish.

Rivojlantiruvchi: oʻquvchilarning ogʻzaki nutq koʻnikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

Oʻquvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

– dars va mashgʻulot jarayonlarida faol ishtirok etish;

– oʻzining fuqarolik burchlarini bilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalanish kompetensiyasi:

– aniq hisob-kitoblarni bilish, oʻrganilgan mavzu doirasida grammatik jadvallarni oʻqiy olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, koʻrgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “koʻrsam tezroq oʻrganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, koʻrgazmalar va tarqatma materiallar, oʻquv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Boʻlimlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	Oʻtgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani soʻrash: a) Savol – javob oʻtqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining quyidagi moddalarini oʻqing. Oʻz fikringizni bildiring.

66-modda. Mulkdor oʻziga tegishli boʻlgan mol-mulkka oʻz xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak.

68-modda. Yer, yerosti boyliklari, suv, oʻsimlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy

resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir. Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin.


Quyidagi gap va matnlarni ifodali o'qing. Sizda ham tabiatdan zavqlanish hissi bo'lganmi? Bu qachon sodir bo'ladi?

Inson tabiat bilan bir butun, shuning uchun doim tabiatga oshiqadi va uning bag'rida taskin topadi.

Tabiat mo'jizalari inson qalbini, ruhiyatini boyitadi, yangi g'oyalar sari yetaklaydi. Tabiat qo'ynida o'tkazilgan vaqt har doim zavqli va mazmunli bo'ladi.

Tabiatni asrash har birimizning burchimizdir. Uni kelajak avlodga bus-butun yetkazishimiz lozim.

Diagramma bilan tanishing. Eksport tovarlarining asosiy guruhlari (eksportning umumiy hajmiga moslashtirilgan)



kun.uz

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Dunyo atrof-muhit kuni qachon nishonlanadi?
2. Tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq qanday qonun va qarorlar mavjud?
3. Ekologik madaniyat deganda nimani tushunasiz?
4. "Ekologik tarbiya oiladan boshlanadi" degan fikrni izohlang.

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Quyidagi qoliplardan foydalanib ko'chirma gapli qo'shma gaplar tuzing va yozing. Nega *muallif gapi* va *ko'chirma gap* deyilishini tushuntiring.

1	Muallif gapi	Ko'chirma gap	Muallif gapi
2	Ko'chirma gap	Muallif gapi	Ko'chirma gap
3	Muallif gapi	Ko'chirma gap	
4	Ko'chirma gap	Muallif gapi	

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: “Shaharlarning “yashil o‘pkasi” matni ustida ishlash

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

– eshitilgan yoki o‘qilgan matnlardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saralash.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi :

– doimiy ravishda mustaqil o‘qib-o‘rganish, bilimni oshirib borish, kognitivlik (ijodiylik) ko‘nikmasini shakllantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

SHAHARLARNING “YASHIL O‘PKA”SI

Botanika bog‘ini oddiy parklar, istirohat bog‘laridan farqlash zarur. Istirohat bog‘lari sayr qilish, ko‘ngil yozish, o‘yin-kulgi uchun mo‘ljallangan tabiiy yoki ekilgan o‘simliklar, suv havzalarini o‘z ichiga olgan bir maydondir. Istirohat bog‘larida botanika bog‘laridan farqli ravishda tadqiqotlar o‘tkazilmaydi, unda yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan yoki Qizil kitobga kiritilgan o‘simliklar deyarli bolmaydi. Botanika bog‘lari ning asosiy vazifasi mahalliy va chet el o‘simliklarini, ekotizimni tartiblash, to‘g‘ri sharoitda saqlash, ularni aholiga tanishtirishdan iborat. Bunday yashil maskanlar ko‘ngilochar parkka aylanib ketish in ing oldi olinishi kerak. Botanika bog‘lari ilmiy tadqiqot va jamiyat o‘rtasidagi ko‘prik, o‘simliklar esa aloqa vositasidir. Botanika bog‘ining biologik merosni asrash va uni odamlarga o‘rgatishdagi roli beqiyos, ularni bolalarga tabiatni tanishtiruvchi “yashil maktab” desa ham bo‘ladi. Ulaming ilmiy hamda tabiatni asrashdagi ahamiyatini anglash

lozim. Aholi zichligi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarda ekani sabab Singapurda yerdan o'ta unumli foydalaniladi. Ayni damda ko'kalamzorlashtirishga ham e'tibor katta - Singapurning 56 foizi yashillik bilan qoplangan. O'simlik-u daraxtlarning bari davlat muhofazasi va parvarishida, har birining o'z ID raqami bor. Tabiatga zarar yetkazganlar ayovsiz jazolanadi. 1859-yilda tashkil topgan Singapur botanika bog'ining maydoni dastlab 32 gektar bolgan, hozir esa bog 82 gektami egallaydi. Singapur botanika bog'i YUNESCO ro'yxatiga olingan dunyodagi uchinchi va Osiyodagi birinchi botanika bog'i hisoblanadi. Bog'ning o'zi yana bir necha kichik qismlarga bo'lingan bo'lib, ular orasida Milliy orxideyalar bog'i, bolalarga mo'ljallangan bog', Botanika bog'i tarixi muzeyi, ko'llar (ulardan bin musiqiy tadbirlar o'tkazish uchun mo'ljallangan bolib, Simfonik ko'l deb ataladi) va boshqalar bor. Hozir bog'da nabotot olamining 10 mingdan ortiq turi mavjud. Singapur botanika bog'ining eng mashhur tashrif qog'ozlaridan bin sanaluvchi Orxideyalar bog'ida 6 mingdan ortiq orxideyani tomosha qilish mumkin. Ular orasida mashhur shaxslar, davlat arboblari sharafiga maxsus yetishtirilgan va nomlangan orxideyalar bor. Xususan, O'zbekiston prezidentlari sharafiga nomlangan gullarni ham ko'rishingiz mumkin. Tashrif buyuruvchilar soni juda katta bolgach (Singapur botanika bog'iga yiliga 4,5 mln kishi keladi), ularning barini kuzatib, nazorat qilib bolmaydi, kimdir chiqindi tashlashi, o'simliklarga zarar yetkazishi mumkin. Singapur botanika bog'ida bunday holat qat'iy jazolanadi.



Matnda keltirilgan quyidagi so'z birikmalarini izohlari bilan moslashtiring. Bittasini o'zingiz izohlang.

1	<i>ignabargli daraxtlar</i>	A	yer yuzasining pastqam, chuqur joylarida tabiiy yoki sun'iy ravishda suv to'planishidan hosil bo'ladigan sekin oqar yoki oqmas suv manbayi
2	<i>rezavor butalar</i>	B	odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o'simliklar - giyohlar
3	<i>suv havzalari</i>	D	sershira, meva beruvchi ko'p yillik buta, chala o'tsimon o'simlik
4	<i>ilmiy tadqiqot</i>	E	chatishtirish, duragaylash natijasida hosil qilingan yangi o'simlik turi
5	<i>darivor o'simliklar</i>	F	yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, mavjud bilimlarni oshirishga qaratilgan kreativ va tizimli ish
6	<i>gibrid o'simliklar</i>	G	qarag'aytoifa (ochiq urug'li), barglari tangacha yoki ignasimon o'simlik

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Botanika bog'lari haqida nimalarni bilasiz? Sizingcha, botanika va istirohat bog'lari qanday farqlanadi?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Bosma va internet nashrlaridan O'zbekistondagi qo'riqxonalar haqida ma'lumot to'plang. Ularning to'g'riligini tekshiring va jadvalda aks ettiring. Bu ma'lumotlar asosida og'zaki nutq tayyorlang.

T/R	Qayerda joylashgani	Yer maydoni	Qachon tashkil topgani	O'ziga xosligi	Ma'lumot olingan manba
***	***	***	***	***	***

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

64 listdan iborat ona tili fanidan 8-sinf III chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**